

Hojatxonaga kirish odobi



15:26 / 26.10.2018 20987

Ey, farzand! Tahorat ushatish uchun hojatxonaga borsang, «Bismilloh» deb chap oyog'ing bilan kir. O'tirganda old yoki orqa tarafing qiblaga to'g'ri kelib qolmasin, bunga e'tibor ber. Katta hojat va bavlingga qarama. Hojatxona ichida so'zlama. Ehtiyojning tugamasdan turib ketma, bitgach, uzoq o'tirib qolma. Poklanish uchun kesak yoki shunga o'xshash jismlarni qo'lla, bularni chap qo'ling bilan bajar. Peshob tomchilari mutlaqo to'xtashini kut. So'ngra suv bilan poklan.

Suv bilan poklangan a'zo yana toza bo'z, match bilan quruqlanadi. So'ng kiyinib, turib, o'ng oyoq bilan hojatxonadan chiqiladi. Hojat ishlari bitgach, shu duo o'qiladi: «**Alhamdu lillahillaziy azhaba anniy ma yu'ziyniy. Va amsaka alayya ma yanfauniy**».